Ushbu Farmonning “Atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha islohotlar” bo‘limida: respublikada ekologik vaziyatni tubdan yaxshilash, inson hayotiga ta’sir o‘tkazuvchi ekologik muammolarni bartaraf etish; ekologik vaziyatni barqarorlashtirishga qaratilgan “Yashil makon” umummilliy loyihasini kengaytirish; o‘rmonlar maydonini kengaytirish; Orolbo‘yi mintaqasida ekologik vaziyatni barqarorlashtirish; Orol dengizi qurishi natijasida yuzaga kelgan ekologik muammolarning salbiy ta’sirini yumshatish; iqlim o‘zgarishi salbiy ta’sirining oldini olish; biologik xilma-xillik ishonchli saqlanishini ta’minlash; qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqish xizmatlari sifatini yaxshilash; atmosfera havosi ifloslanishining oldini olish, uning tabiiy tarkibini saqlash bo‘yicha keskin choralar ko‘rish kabi masalarni hal qilishga ustuvor ahamiyat berilgan.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

Mazkur muammoni dunyoning yetakchi iqtisodchi olimlari va mintaqaviy iqtisodiyot fanining asoschilari I.Tyunen [1], A.Veber, V.Kristaller, G.Xotellin [2], U.Izard [3] asarlarida mintaqaviy iqtisodiyotning nazariy asoslarini tadqiq qilingan boʻlsa, M.Porter [4]ning xalqaro raqobatga bagʻishlangan, P. Krugman [5]ni zamonaviy oʻsishning geografik xususiyatlariga bagʻishlangan, S. Levin, W. Clark [6], R. Mendelsohn [7], W. Nordhaus [8], H. Daly [9], R. Costanza [10], J. Sachs [11] asarlarida barqaror rivojlanishning tadqiqida ekonometrik modellardan foydalanish, V. Kvint [12], A. Granberg [13], V. Keshyan, A. Chernishev [14], S. Bobilev, N. Zubarevich [15], A. Merzlov, A. Filippova [16], A. Chandler [17], H. Braczyk, P. Cooke [18], P. Kresl, B. Singh [19], W. Lever [20] kabi olimlar oʻz tadqiqotlarida mintaqaviy barqaror rivojlanishning iqtisodiy-ekologik jihatlarini chuqur oʻrganganlar.

Oʻzbekistonlik olimlardan Q. Abirqulov [21] (ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va joylashtirish), T. Axmedov [22] (mintaqaviy siyosat), T. Jumayev [23] (togʻ zonalarining barqaror rivojlanishi), A. Soliyev, S.Yanchuk [24] (mintaqaviy iqtisodiyot) va boshqalarning ilmiy ishlari va kitoblarida ekologik xavfsizlik, mamlakat va hududlar barqaror rivojlanishi, raqobatbardoshlik, hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining oʻziga xos xususiyatlari bilan bogʻliq tushunchalar keng yoritib berilgan. Yuqoridagi olimlar mazkur muammo boʻyicha koʻplab ishlarni amalga oshirib, bir qator natijalarga erishganlar. Ammo, ularning ilmiy ishlarida mintaqa barqaror rivojlanishida ekologik xavfsizlikni taʼminlash, bu orqali mintaqa raqobatbardoshligini oʻsishini cheklovchi ekologik omillar yetarli darajada oʻrganilmagan.

## TADQIQOTNING USULLARI

Tadqiqotda ilmiy abstraksiya, dialektik tadqiqot, induksiya va deduksiya, maqsadli rivojlantirish, monografik kuzatuv, tizimli va qiyosiy tahlil, grafik tasvirlash, ekspert baholash, iqtisodiy statistik va ekonometrik modellashtirish usullardan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Islohotlarni yanada chuqurlashtirish va erkinlashtirish, barqaror rivojlanishga erishishda koʻp jihatdan mamlakat ichki mintaqalari taraqqiyotiga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Hozirgi davrda ishlab chiqarishni toʻgʻri hududiy tashkil qilish, mintaqalarning tabiiy-iqtisodiy resurslaridan samarali foydalanish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (BRM) BMT boshchiligidagi uzoq, koʻp tarmoqli va ishtirokchi jarayon tomonidan ishlab chiqilgan maqsadlardir. BRM 2030-yilgacha ijtimoiy, ekologik va iqtisodiy muammolarni hal qilishga qaratilgan.

BRM lari 2015-yilda BMT Bosh Assambleyasi chogʻida qabul qilingan “global harakatlar rejasi” boʻlgan 2030-yilgi kun tartibining bir qismidir. 17 ta BRM ga qoʻshimcha ravishda, 5 ta vazifa: Odamlar, Sayyora, Farovonlik, Hamkorlik va Tinchlik asosida barqaror rivojlanishni belgilaydi. Har bir BRM ham oʻziga xos maqsadlarga ega.

Respublikamizda mintaqalar iqtisodiyotini optimal tashkil qilishni hamda uni takomillashtirishga yoʻnaltirilgan chora-tadbirlar xom-ashyo ishlab chiqarishga qaratilganlikni bartaraf etish, ishlab chiqarish-texnologik bazasini shakllantirish, shuningdek mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi nomutanosibliklarni kamaytirishga xizmat qilmoqda. Ekologik omil yashash muhitini yaxshilashga qoʻshadigan hissasini, tabiatni asrash, inson va tabiat uchun zararli boʻlgan ekologik oqibatlar va texnogen halokatlar oldini olishni tavsiflaydi.

Tadqiqotda olingan ilmiy natijalar orqali hududiy taraqqiyotning umumiy darajasi, hudud iqtisodiyoti asosiy tarmoqlarining holati, hududning moliyaviy holati, investision faollik, aholi daromadlari darajasi, bandlik va mehnat bozori, ijtimoiy soha holati, ekologik vaziyat hududiy diagnostika koʻrsatkichlari va shular asosida hududlar reytingini hamda rivojlanish indeksini aniqlash, metodologiyasini takomillashtirish imkonini beradi. Murakkab ekologik vaziyatli hududlarni davlat tomonidan qoʻllab quvvatlanishining xorijiy tajribasi va mintaqa rivojlanish strategiyasini shakllantirish asosida hududlar iqtisodiy barqarorligini taʼminlash vositalarini chuqur tadqiq etishni talab etadi.

Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda, muallifning fikricha hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ekologik jihatlarini aniqlashning vaziyatli tahlil usulidan foydalanish mumkin boʻladi (1-jadval).

Mamlakatimizda yuz berayotgan iqtisodiy munosabatlarni isloh qilish va xoʻjalik yuritishning yangi bozor sharoitlarining rivojlanish jarayonlari ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish, hududiy iqtisodni boshqarish tamoyil va usullariga yangicha yondashuvni talab etadi. Jahon bozoridagi integrasiyalashuv jarayonlari natijasida mintaqalar ham ekologik muamolarning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyati va ishlab chiqarish imkoniyatlarining sifat hamda miqdoriy koʻrsatkichlari nuqtai nazaridan sezilarli oʻzgarishlarga duch keldi. Oʻzbekiston iqtisodiy tizimi transformasiyasi institusional oʻzgarishlarni amalga oshirish va shakllanayotgan raqobatli bozorlar talablariga mos ravishda hudularning resurslaridan samarali foydalanish va ishlab chiqarishni joylashtirishga ekologik muammolarga tizimli yondashuvni talab etadi.



TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

1-jadval: Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ekologik jihatlarini aniqlashning vaziyatli tahlil usuli[1]

| I. Sabab va oqibat aloqalari tahlili | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **№** | **Muhim muammolar** | **Muammolar paydo bo'lish sababi** | **Muammo oqibatlari** | **Boshqa tarmoqlar bilan aloqasi** |
| 1.1 | 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulotni aholi jon boshiga ikki barovar o'sishi | Demografik jarayonlar, resurslarni chegaralnganligi, dunyo bozoridagi nobarqarorlik va b. | Aholi turmush darajasini va raqobatbardoshlikni pasayishi, ishsizlik va b. | Iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar, modernizatsiya, makroiqtisodiy siyosat va b. |
| 1.2 | Ekologiyani salbiy ta'sirini kamaytirish | Suv va yer resurslarini miqdori va sifatini pasayishi, atrof muhitni ifloslanishi va b. | Suv va yer resurslarini sho'rlanish darajasini oshishi, atmosferani ifloslanishi va b. | Sanoat va qishloq xo'jaligi, ijtimoiy soha, tabiiy resurslardan foydalanish va b. |
| **II. Holatni baholovchi indikatorlar** | | | | |
| 2.1 | Aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot | Barqaror rivojlanish mezoni | Hududlar bo'yicha tabaqalanishuv | Hududlar iqtisodiyotidagi real sektor tarmoqlari |
| 2.2 | Aholi jon boshiga ekologik xarajatlar | Atrof muhitni ximoya qilish mezoni | Hududlar bo'yicha ekologik holatni baholash | Hududlar iqtisodiyti |
| 2.3 | Atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar | Atmosferani ifloslanish darajasi | Hududlar bo'yicha atmosferani ifloslanish darajasini baholash | Hududlarning ijtimoiy sohalari |
| **III. Muammoni hal qilishga yo'naltirilgan dasturlar** | | | | |
| 3.1 | O'zbekiston Respublikasini barqaror rivojlanish milliy maqsadlari va vazifalari | BMT barqaror rivojlanish milliy dasturini tizimli ravishda shakllantirish | Hududlarda ekologik barqaror rivojlanishning maqsadli yo'nalishlarini belgilash | Hududlarning tabiiy resurslari, mehnat resurslari, atrof muhit, chiqindilar va b. |
| 3.2 | 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish strategiyasi | Rivojlanish strategiyasini mexanizmlarini aniqlash | Diversifikatsiyalash, yuqori texnologiyalarni joriy qilish, inson kapitalini o'sishi va b. | Hududlarning innovatsion-ta'lim tizimi,yetakchi tarmoqlar, raqobat ustunliklari va b. |

Mintaqaning iqtisodiy-ekologik rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda uning tarkibidagi asosiy parametrlarning tizimli yondashuv asosida yalpi hududiy mahsulot va atrof-muhitni himoya qilish xarajatlarining aholi jon boshiga tabaqalanish indekslari bo'yicha "yuqori" [1,000-2,562], "o'rta" [0,660-0,922] va "past" [0,504-

1 Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan

0,556] darajalariga muvofiqligini ta’minlash imkonini beradi. Ushbu indekslar tahliliy ishlanmalar va ekspert xulosalariga ko‘ra, mintaqalarning rivojlanishida ekologik omillarni hisobga olgan holda strategik maqsad va vazifalari belgilash, ular mamlakat hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning uzoq muddatli ustuvor yo‘nalishlari bilan bevosita bog‘liqdir (2-jadval).

2-jadval: Yalpi hududiy mahsulot va tabiatni muhofaza qilish harajatlarini aholi jon boshiga o‘zgarish dinamikasi[2]

| Hududlar | Yalpi hududiy mahsulot | | | | | | Tabiatni muhofaza qilish harajatlari | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2018 | | 2020 | | 2022 | | 2018 | | 2020 | | 2022 | |
| | Koeffitsiyent | Rang | Koeffitsiyent | Rang | Koeffitsiyent | Rang | Koeffitsiyent | Rang | Koeffitsiyent | Rang | Koeffitsiyent | Rang |
| **O□zbekiston** | **1** | **-** | **1,000** | **-** | **1,000** | **-** | **1,000** | **-** | **1,000** | **-** | **1,000** | **-** |
| Qoraqalpog‘iston | 0,65 | 10 | 0,641 | 8 | 0,612 | 10 | 0,962 | 5 | 1,539 | 3 | 1,271 | 5 |
| Andijon | 0,687 | 7 | 0,680 | 7 | 0,665 | 7 | 0,161 | 9 | 0,102 | 11 | 0,111 | 11 |
| Buxoro | 0,896 | 4 | 0,915 | 4 | 0,922 | 4 | 0,195 | 7 | 0,327 | 7 | 0,167 | 7 |
| Jizzax | 0,734 | 6 | 0,747 | 6 | 0,746 | 6 | 0,088 | 12 | 0,180 | 9 | 0,139 | 9 |
| Qashqadaryo | 0,642 | 11 | 0,604 | 11 | 0,577 | 11 | 0,174 | 8 | 0,328 | 6 | 0,153 | 8 |
| Navoiy | 1,795 | 2 | 2,799 | 1 | 2,562 | 1 | 9,889 | 1 | 14,543 | 1 | 13,477 | 1 |
| Namangan | 0,533 | 14 | 0,555 | 13 | 0,556 | 13 | 0,026 | 14 | 0,035 | 14 | 0,034 | 14 |
| Samarqand | 0,672 | 9 | 0,622 | 10 | 0,615 | 9 | 0,125 | 10 | 0,149 | 10 | 0,105 | 12 |
| Surxondaryo | 0,565 | 13 | 0,524 | 14 | 0,504 | 14 | 0,051 | 13 | 0,084 | 12 | 0,040 | 13 |
| Sirdaryo | 0,801 | 5 | 0,848 | 5 | 0,820 | 5 | 0,098 | 11 | 0,076 | 13 | 0,109 | 10 |
| Toshkent | 1,073 | 3 | 1,234 | 3 | 1,264 | 3 | 2,231 | 3 | 1,464 | 4 | 1,405 | 4 |
| Farg‘ona | 0,582 | 12 | 0,556 | 12 | 0,571 | 12 | 0,788 | 6 | 0,935 | 5 | 0,875 | 6 |
| Xorazm | 0,675 | 8 | 0,641 | 9 | 0,661 | 8 | 1,067 | 4 | 0,225 | 8 | 1,862 | 3 |
| Toshkent | 1,972 | 1 | 2,038 | 2 | 2,034 | 2 | 3,221 | 2 | 1,936 | 2 | 1,968 | 2 |

O‘zbekiston Respublikasi hududlarini ekologik tanglik darajasiga ko‘ra quyidagicha xarakterlanadigan zonalarga bo‘lish mumkin:

- o‘ta murakkab ekologik vaziyat – Orolbo‘yi hududi (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm viloyati)ni o‘z ichiga olgan;
- murakkab ekologik vaziyat – Qashqadaryo, Navoiy va boshqa viloyatlar;
- o‘rtacha ekologik vaziyat – Andijon, Namangan, Jizzax va boshqa viloyatlar.

Aholi turmush darajasini oshirish va yalpi hududiy mahsulotning barqaror iqtisodiy o‘sishiga erishish uchun ekologik omilni takror ishlab chiqarish jarayonining ajralmas qismiga kiritishni taqozo etadi. Shu munosabat bilan 3-rasmda O‘zbekiston Respublikasi va Toshkent viloyatining yalpi ichki mahsulotining hamda atrof-muhitni muhofaza qilish harajatlarining rivojlanish dinamikasi qiyosiy tahlili keltirilgan.

Bu yerda ham qazib oluvchi sanoat, ham qayta ishlovchi sanoat korxonalarini kuzatish mumkin. Sanoat hajmi viloyat YaHMning 20 foizga yaqinini tashkil qiladi. Sanoat korxonalari viloyatda aholining ish bilan bandligi, milliy bozorni turli sanoat mahsulotlari yetkazib berish bilan ta’minlaydi hamda xorijiy davlatlarga ishlab chiqarilgan mahsulotini eksport qilish bilan shug‘ullanadi.

Toshkent viloyati misolida va uning ma’lumotlari asosida viloyatda sanoat ishlab chiqarishga ta’sir etuvchi omillarning kuchini, bog‘lanish shaklini aniqlab olish mumkin.

Dastlab Toshkent viloyati sanoati rivojlanish ko‘rsatkichlarini ko‘p omilli ekonometrik modelini tuzish uchun natijaviy va ta’sir etuvchi omillarni aniqlaymiz.

Natijaviy omil – viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so‘m (Y). Ta’sir etuvchi omillar – asosiy kapitalga kiritilgan investisiyalar, mlrd. so‘m (X1), xizmatlar hajmi, mlrd. so‘m (X2), atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar, ming tonna (X3) va tabiatni muhofaza qilishning joriy xarajatlari, mln. so‘m (X4).

2 Muallif hisob kitoblari

Tadqiqotimiz ma'lumotlaridan foydalanib ko'p omilli ekonometrik modelning matematik ko'rinishini keltiramiz:

$$\ln \hat{y} = 0{,}4328 + 0{,}8713 \ln x_1 - 0{,}0441 x_3 + 0{,}1929 x_4 \quad (1)$$

Hisoblangan ko'p omilli ekonometrik model shuni ko'rsatadiki, asosiy kapitalga kiritilgan investisiyalar (lnX1) o'rtacha bir foizga oshsa, viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi (lnY) o'rtacha 0,8713 foizga ortishi mumkin ekan. Atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar (lnX3) o'rtacha bir foizga ortishi, viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini (lnY) o'rtacha 0,0441 foizga kamayishiga olib kelar ekan. Tabiatni muhofaza qilishning joriy xarajatlari (lnX4) o'rtacha 1,0 foizgaga ortishi, viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini (lnY) o'rtacha 0,1929 foizga ortishiga olib kelishi kuzatilmoqda.

Natijaviy omil ham yuqorida keltirilgan (1) ko'p omilli ekonometrik modeldan prognozda foydalanish mumkinligini ko'rsatadi.

Ko'p omilli ekonometrik modelning haqiqiy (Actual), hisoblangan (Fitted)qiymatlari va ular o'rtasidagi farqlar (Residual) quyidagi 3-rasmda keltirilgan.




3-rasm: O'zbekiston Respublikasi va Toshkent viloyatida aholi jon boshiga YAHM va ekologiya xarajati to'g'risida ma'lumot, ming so'm[3]

Ko'p omilli ekonometrik model bo'yicha Toshkent viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining hisoblangan qiymatlar grafigi uning haqiqiy qiymatlari grafigi bilan juda yaqin joylashgan, ular o'rtasidagi farqlar ham unchalik katta emas.

Ushbu Trend modelida – bu ta'sir etuvchi omilning vaqtga bog'liq funksiyasidir hamda u umumiy holda quyidagi ko'rinishga ega:

$$X_i = \beta_0 + \beta_1 \cdot t + \varepsilon \quad (2)$$

Viloyatda asosiy kapitalga kiritilgan investisiyalar (lnX1) bo'yicha trend model quyidagi ko'rinishga ega:

$$\hat{X}_1 = 7{,}2657 + 0{,}2912 \cdot t$$
$$R^2 = 0{,}9545,\ F_{хисоб} = 188{,}99,\ t_{хисоб} = 13{,}7475 \quad (3)$$

Viloyatda atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar (X3) bo'yicha trend model quyidagi ko'rinishga ega:

3 Statistik ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi

$$\ln \hat{X}_3 = 6{,}3629 + 0{,}1188 \cdot t$$
$$R^2 = 0{,}3847,\ F_{\text{хисоб}} = 5{,}6260,\ t_{\text{хисоб}} = -2{,}3719 \quad (4)$$

Viloyatda tabiatni muhofaza qilishning joriy xarajatlari (X4) bo‘yicha trend model quyidagi ko‘rinishga ega:

$$\ln \hat{X}_4 = 11{,}1444 + 0{,}0249 \cdot t$$
$$R^2 = 0{,}6373,\ F_{\text{хисоб}} = 61{,}260,\ t_{\text{хисоб}} = 2{,}8802 \quad (5)$$

Toshkent viloyatida, iqtisodiy rivoglanishning asosiy indiratorlari trend modellar (3-5) tahlili shuni ko‘rsatadiki, trend modellardagi barcha hisoblangan koeffitsiyentlarning statistik ahamiyatliligi, parametrlarining ishonchliligi aniqlandi.

Demak, (3) – (5) trend modellari yordamida ta’sir etuvchi omillarining prognoz hisob-kitoblarini amalga oshiramiz. Natijada (3) – (5) trend modellari bo‘yicha o‘zgaruvchilarining prognoz davridagi qiymatlariga ega bo‘lamiz (3-jadval).

3-jadval: Toshkent viloyatida sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmining 2011-2021-yillardagi dinamikasi va ularni 2023-2027-yillarga prognoz qiymatlari[4]

| Yillar | Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so□m (Y) | Asosiy kapitalga kiritilgan investisiyalar, mlrd. so□m (X1) | Atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar (X3) | Tabiatni muhofaza qilishning joriy xarajatlari, mln. X4 |
|---|---|---|---|---|
| 2012 | 8112,1 | 1827,0 | 290,4 | 149434,0 |
| 2013 | 10418,3 | 3195,2 | 372,3 | 61946,9 |
| 2014 | 12474,6 | 4021,7 | 619,2 | 51010,0 |
| 2015 | 14401,0 | 4428,1 | 370,6 | 52621,5 |
| 2016 | 16864,7 | 4238,7 | 318,7 | 63453,0 |
| 2017 | 21693,4 | 5938,4 | 302,9 | 92437,7 |
| 2018 | 37724,4 | 11226,9 | 336,6 | 93145,3 |
| 2019 | 53484,8 | 20353,9 | 397,9 | 75342,3 |
| 2020 | 65949,9 | 21148,6 | 429,9 | 81523,7 |
| 2021 | 83433,9 | 28113,6 | 88,9 | 105101,9 |
| 2022 | 102145,2 | 32101,5 | 80,1 | 102557,1 |
| 2023 | 132938,3 | 47114,4 | 139,4 | 93282,9 |
| 2024 | 173064,8 | 63041,7 | 123,8 | 95636,3 |
| 2025 | 225303,2 | 84353,2 | 109,9 | 98049,1 |
| 2026 | 293309,4 | 112869,2 | 97,6 | 100522,8 |
| 2027 | 381842,8 | 151025,2 | 86,7 | 103058,9 |

Hududlarning raqobatbardoshligi o‘sishini cheklovchi ekologik omillar ta’sirini hisobga olgan holda Toshkent viloyati yalpi sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmining 2027-yilgacha prognoz ko‘rsatkichlari shuni ko‘rsatadiki Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2022-yildagi 102145,2 mlrd. so‘mdan 2027-yilda 381842,8 mlrd. so‘mni tashkil etadi. Bu o‘z navbatida mintaqa iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi ekologik omillarga bog‘liqligini ko‘rsatadi.

4 Muallif ishlanmasi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

- ma'muriy islohotlar konsepsiyasi doirasida mamlakatimizda boshqaruv tizimini nomarkazlashtirish siyosatini amalga oshirish dorisada hududlar barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlashda ekologik muammalarni roli va o'rni ortib bormoqda. Bizning fikrimizcha, to'g'ri tanlangan strategiya kuch va mablag'larni iqtisodiy rivojlanish salohiyatini ro'yobga chiqarishga va shu bilan bozor sharoitida hududlarning samarali rivojlanishini ta'minlashga imkon beradi;
- hududlarni barqaror rivojlantirish strategiyasi, ularning tabiiy, iqtisodiy va inson salohiyatidan samarali foydalanish, mahalliy byudjetlarning daromad qismi va hududning eksport imkoniyatlarini kengaytirish, zamonaviy bozor infratuzilmasini takomillashtirish, xizmat ko'rsatish, turizm sohalarini rivojlantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni kengaytirish hisobiga yangi ish o'rinlarini yaratish hamda hududlarning ekologik xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi;
- hududlarni barqaror rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga quyidagilar kiritilgan: klaster yondashuvidan foydalanish, hududiy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlaydigan, ixtisoslashtirish, innovatsiya va kooperatsiyalar orqali yuqori mahsuldorlik va samaradorlikni ta'minlash; jahon hamjamiyati oldida ko'mir, neft va gaz maxsulotlariga asoslangan energiya manbalariga bog'liqlikni kamaytirish vazifasi turibdi, bu masalalar ayniqsa bugungi geopolitik vaziyatda o'z axamiyatini kuchaytirdi (2030 yilga qadar milliy iqtisodiyotni energosamaradorligi ikki baravar oshiriladi va qayta tiklanuvchi energiya manba'larining ulushi 25 % yetkaziladi); atrof-muhitni strategik rivojlantrish algoritimini ishlab chiqish zarur innovasion ishbilarmonlik muhitini shakllantirish zarurdir;
- Toshkent viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi shunday paradigmaga asoslanadiki, unda, global iqlim o'zgarishi sharoitida ekologik barqaror urbanizatsiya va transport tizimiga, kam uglerodli energetika va atrof-muhitga kam salbiy ta'sir ko'rsatadigan sanoat tuzilmasiga ega bo'lgan hududlar raqobatda muqarrar ravishda ustunlikka erishadi;
- Toshkent viloyati yalpi sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmining 2027-yilgacha prognoz ko'rsatkichlari shuni ko'rsatadiki Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2022-yildagi 102145,2 mlrd. so'mdan 2027-yilda 381842,8 mlrd. so'mni tashkil etadi. Bu o'z navbatida mintaqa iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi ekologik omillarga bog'liqligini ko'rsatdi.

**Adabiyotlar ro'yxati:**


1. Тюнен И.Г. Изолированное государство. Москва, Экономическая жизнь.
2. Вебер, А., Хоутеллінг, Г., Кристаллер, В., Куклінський, А., & Робсон, П. Теоретико-методологічні основи регіоналістики.,
3. Izard U. Methods of Regional Analysis: Introduction to the Science of Regions. Moscow: Progress. – 1966.,
4. Porter M. Международная конкуренция. – Москва: Международные отношения, 2005. – 859 с.,
5. Krugman P. Geography and Trade, Gambridge MIT Press,1991,
6. Levin S. A., Clark W. Toward a science of sustainability //Center for International Development Working Papers. – 2010.,
7. Mendelsohn R. The economics of adaptation to climate change in developing countries //Climate Change Economics. – 2012. – T. 3. – №. 02. – S. 1250006.
8. Nordhaus W. Evolution of modeling of the economics of global warming: changes in the DICE model, 1992–2017 // Climatic change. – 2018. – T. 148. – №. 4. – S. 623-640.,
9. Daly H. E. Ecological economics and sustainable development. – Edward Elgar Publishing, 2007.,
10. Costanza R. Ecological economics in 2049: Getting beyond the argument culture to the world we all want //Ecological Economics. – 2020. – T. 168.
11. Sachs J. D. Sustainable development goals for a new era //Horizons: Journal of International Relations and Sustainable Development. – 2014. – №. 1. – S. 106-119,.
12. Kvint V. Strategiyalash nazariyasi va amaliyoti.T.: TASVIR.2018-45 b.,
13. Гранберг.А. Основы регионалной экономики. М.: ГУВШЕ, 2000, с.589.,
14. Кещян В., Чернышев А. Государственная поддержка социално-экономического развития депрессивных регионов в зарубежных странах. М.: Регионалная экономика и теория.2006, №1, с.28.,
15. Бобылев С.Н., Зубаревич Н.В. Индикаторы устойчивого развития. Москва, Макс Пресс, 2008,,
16. Мерзлов А, Филиппова А. Особенности устойчивого развития селских территорий в Европейских странах. М.:Международный селскохозяйственный журнал. № 5, 2016,с.14.,
17. ChandlerA.D., Jr. Strategy and Structure. M.I.T. Press, Cambridge, Mass., 1962.,
18. Braczyk H, Cooke P, Heidenreich M. Regional Innovation Systems. UGL Press, London, 1998.,
19. Kresl P.K., Singh B. Competitiveness and the Urban Economy // Urban Studiyes. 1999. Vol. 36. № 5 – 6. ,
20. Lever W.F. Competitive Citiyes in Europe // Urban Studiyes. 1999. Vol. 36.

21. Abirqulov Q., Adilova M. Iqtisodiy barqaror rivojlanish va atrof muhit muhofazasi muammolari//O‘zbekiston geografiya jamiyati axboroti. Toshkent. 32-jild, 2008y.B. 63-65 betlar//
22. Ахмедов Т.М. Актуальность региональной политики в Республике Узбекистан. Т.: Экономическое обозрение.2005, №1. с.30.,
23. Jumayev T.J. Ekologiya iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. Monografiya. T.: “IQTISODIYOT” 2014y. 233b.
24. Салиев А.С., Янчук С.Л. Размещение производительных сил и поляризованное развитие экономики республики Узбекистан. – Т. 2005.
25. Rajabov N. Zonal policy concept: prospects for effective investment climate management //Экономика и образование. – 2022. – Т. 23. – №. Maxsus son. – С. 212-219.
26. Rajabov N. Erkin iqtisodiy zonalarda investitsion muhit jozibadorligini boshqarish masalalari xususida: https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss3/a15 //Экономика и образование. – 2022. – Т. 23. – №. 3. – С. 101-108.
27. Xasanova, N. (2023). Barqaror rivojlanish konsepsiyasini tadqiq qilish yondashuvlari tahlili. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 1(10). https://doi.org/10.55439/GED/vol1_iss10/a641
28. Adilova M.T. O‘zbekiston mintaqalarini barqaror rivojlantirishning iqtisodiy-ekologik jihatlari// “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” -T.:2023y №4. 284-289 betlar.
29. Adilova M.T. Ekologik va iqtisodiy interaktiv xaritalash hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish muammolarini o‘rganish vositasi sifatida// “Iqtisodiyot va ta’lim” – T.: 2022 y. №5. 418-426 betlar
30. Adilova M.T. Green economy: Essence, principles and prospects// International Journal of Applied Research 2020; 6(5): ISSN Online: 2394-5869, 451 – 453. IJARPF, SJIF 2020: 4.942, Impact Factor: 8.4

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 2**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.